


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI**

**AMALIY FANLARI BLOK MODULI BO'YICHA
UMUMIY O'RTA TA'LIMNING
O'QUV DASTURI
(III- SINF)**

TEXNOLOGIYA



Toshkent-2018

TUSHUNTIRISH XATI

Umumta'lim maktablarida fanlarni o'qitish jarayonida fan-texnika taraqqiyoti, injeneriya, matematika va kundalik hayot bilan bog'lab o'rganishning STEAM (science, technology, engineering, art and mathematics) yondashuvi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish dolzarb masaladir. STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda umumta'lim fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan umumiyliga reja. STEAM o'ziga tabiiy fanlar, texnologiya, injenerlik, san'at, ijodkorlik, matematika fanlarining amaliy jihatlarini umumlashtirib integratsiyalashni nazarda tutadi.

STEAM - kundalik hayotning ilmiy-tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta'limning integrativ yondashuvini taqozo etadi. Bunday yondashuvdan maqsad - ta'lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda maktab, jamoatchilikni jalg qilib, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ'ib qilishga qaratilgan.

Xalqaro tajribalar asosida STEAMni joriy etilishi bugungi kunda ta'lim tizimiga yondashuvni o'rganish va ta'limga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. O'quvchilar amaliy ko'nikmalarga e'tibor qaratish orqali irodani, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi.

Texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik ijodkorligini, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish, dars jarayonida turli va tabiiy hamda metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb-hunarga yo'naltirish, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro'zg'orshunoslik, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini egallash hamda ularni hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi - o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan amallar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb-hunarga yo'naltirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish layoqatlarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik obekt va texnologik jarayonlarga oid ma'lumotlarni o'rganish;

texnik obekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat amallarini bilish;

texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish;

texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish;

jarayonlarni bajarilishiga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish;

kasb tanlashga yo‘naltirishdan iborat.

Umumiy o‘rtta ta’lim maktabalarida texnologiya fani boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida umumlashgan holda, 5-9-sinflarda “**Texnologiya va dizayn**”, “**Servis xizmati**” yo‘nalishlarida o‘qitiladi.

Texnologiya fani quyidagi bo‘limlar asosida o‘qitiladi.

1-4-sinflar uchun

1. Qog‘oz va karton bilan ishlash.
2. Tabiiy va turli materiallar bilan ishlash.
3. Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash.
4. Badiiy qurish-yasash va texnik modellashtirish.

Malakali o‘qituvchilar yetarli bo‘lgan 5-9-sinflarda “**Texnologiya**” o‘quv fanidan o‘quvchilar soni 25 tadan yuqori bo‘lsa ikki guruhga bo‘lib o‘qitishga ruxsat etiladi.

Har bir dars xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilgan holda tashkil etiladi.

Shuningdek, o‘quvchilarga texnologiya fani yo‘nalishlari bo‘yicha kasb turlari haqida axborotlar beriladi.

Ushbu o‘quv dasturida boblar kesimida mavzularga ajratilgan umumiy soatlar hajmi keltirilgan bo‘lib, ularning taqsimlanishi o‘qituvchi tomonidan ijodiy yondoshgan holda amalga oshiriladi. Jumladan, taqvim mavzuiy rejani tuzushda o‘quv dasturida boblarga ajratilgan (mavzularga berilgan) umumiy soat hajmidan chiqmagan holda taqsimlanishi zarur. Taqvim-mavzuiy reja tuzishda o‘qituvchi bob ichida berilgan mavzularni sinflar kesimida taqsimot qilish vaqtida o‘quvchilarni o‘zlashtirish darajasini inobatga olgan holda, namunada berilgan soatlarni ko‘paytirsa, * belgini qo‘yishi hamda dastur soatlarni taqsimotiga kiritilgan o‘zgarishlar yuzasidan maktab pedagogik kengash yig‘ilishida muhokama etib, qaror qismi bilan hujjatlashtirish lozim.

O‘quv dasturida berilgan umumiy soatlar asosida har chorakda bir marta nazorat ishi o‘tkaziladi. Nazorat ishini o‘tkazish tartibi va shakli o‘qituvchi tomonidan tanlanadi hamda nazorat ishi materiallari mavzudan kelib chiqqan holda tayyorlanadi.

O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:

yasashda ishlatiladigan ish qurollaridan to‘g‘ri foydalanadi;

tabiy va turli materiallardan buyumlar yasay oladi;

qog‘ozdan mozaika usulida ayiqcha yasay oladi;

kartondan harakatli o‘yinchoq yasay oladi;

tabiy va turli materiallar, barglardan atirgul yasay oladi;

turli geometrik shakllardan harakatlanuvchi modellar yasay oladi;

yumshoq o‘yinchoq tika oladi;

qog‘ozdan buklash usulida gullar yasay oladi.

I BOB. QOG‘OZ VA KARTON BILAN ISHLASH (8 soat)

Qog‘ozni qirqish va buklash usulida gullar shaklini yasash. Qog‘ozni qirqish va buklash usulida gullar shaklini yasash texnologik xaritasi yasash bosqichlari.

“Ertak qahramonlari”ni applikatsiya usulida yasash. Qog‘ozni yirtish usulidan foydalanib, ertak qahramonlarini applikatsiya usulida yasashni texnologik xaritasi, yasash bosqichlari.

Pape-mashe usulida piyola tayyorlash va bezash. Pape-mashe usulida payola tayyorlash va bezash texnologik xaritasi, yasash bosqichlari.

Turli qog‘ozlardan gerdlandiya va qorparchasi yasash. Turli qog‘ozlardan gerlyandiya va archa bezaklarini yasash texnologik xaritasi yoki yasash bosqichlari.

“Bahorgi gullar” kompozitsiyasini tayyorlash. Turli qog‘ozlardan bahorgi gullar kompozitsiyasini tayyorlash texnologik xaritasi, yasash bosqichlari.

Bayramga tabriknoma yasash. 8-Mart bayramiga tabriknoma yasash, texnologik xaritasini yasash bosqichlari.

Navro‘z bayrami uchun bezaklar tayyorlash. Navro‘z bayramiga turli bezaklar tayyorlash va bezaklar asosida tabriknoma tayyorlashni texnologik xaritasini yasash bosqichlari.

II BOB. TABIIY VA TURLI MATERIALLAR

BILAN ISHLASH (6 soat)

“Guldonda gullar” kompozitsiyasini yasash. Tabiiy materiallardan “Guldonda gullar” kompozitsiyasini kuzgi gullardan yasashni texnologik xaritasi yoki yasash bosqichlari.

Sovg‘a uchun suvenir yasash. Polimer materiallardan (biser, munchoq, tugma, toshlar va b.) suvenir yasashni texnologik xaritasi yoki yasash bosqichlari.

Somondan applikatsiya usulida hayvonlar, gullar, jonivorlar shaklini yasash. Somondan applikatsiya usulida manzara, hayvonlar, gullar, jonivorlar shaklini yasash texnologik xaritasi yoki yasash bosqichlari.

III BOB. BADIY QURISH-YASASH VA TEXNIK

MODELLASHTIRISH (10 soat)

“Kuz” manzarasini qurish-yasash. Qog‘ozdan “Kuz” manzarasini qurish-yasash texnologik xaritasi yoki qurish-yasash bosqichlari.

“Kapalak” shaklini qurish-yasash. Tabiiy materiallar: mayda toshchalardan kapalak va boshqa jonivorlar shaklini qurish-yasash texnologik xaritasi yoki qurish-yasash bosqichlari.

Harakatli o‘yinchoqni qurish-yasash. Harakatli o‘yinchoqni qurish-yasash texnologik xaritasi yoki qurish-yasash bosqichlari.

Turli geometrik shakllardan harakatlanuvchi modellar qurish-yasash. Mashina, raketani texnologik xaritasi yoki qurish-yasash bosqichlari.

Suzuvchi modellar maketini qurish-yasash. Qog'ozdan buklash usulida qayiqcha qurish-yasash texnologik xaritasi, qurish-yasash bosqichlari.

IV BOB. GAZLAMA VA TOLALI MATERIALLAR BILAN ISHLASH (6 soat)

To‘g‘ri chok tikish. To‘g‘ri chok tikish texnologiyasi haqida tushuncha, texnologik xaritasi, tikish bosqichlari.

Igna uchun yostiqcha tikish. Ignani qadab qo‘yish uchun yostiqcha tikish texnologik xaritasi, tikish bosqichlari.

Parolon va ipdan yumshoq o‘yinchoqlar tayyorlash. Parolon va ipdan yumshoq o‘yinchoqlar tayyorlashni texnologik xaritasi, tikish bosqichlari.

TEXNOLOGIYA FANINI MAVZUIY REJALASHTIRISH (3-sinf)

№	BOB NOMLARI	Jami soatlar taqsimoti		
		Ja ni	Naza y	Amali
1	Qog’az va karton bilan ishlash	8		8
3	Tabiiy va turli materallar bilan ishlash	6		6
4	Gazlama va tolali materallar bilan ishlash	6		6
5	Badiiy qurish yasash va texnik madellashtirish	10		10
	Jami	34	0	34

Foydalanilgan va foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar hamda manbalar:

1. M.M.Shmulevich “Qog‘ozdan texnik modellar yasash” Toshkent. O‘qituvchi 1989 yil
2. G. A. Amirova “Tabiatni estetik irok qilish” Toshkent. 2013 yil
3. Марина Левина “365 весёлых урок труда” Айрис пресс 1999 год
4. N.Egamov “O‘zingiz qirqing va yasang” 1996 yil.
5. Дидактический материал по трудовому обучению. Айрис пресс 1999 год
6. A.S. O‘rolov “Mo’jiza yaratish san’ati” 1996 yil
7. М.В. Хохлова, Н.В. Синица, Н.А. Семенович, Н.В. Матяш “Технология методические рекомендации к проведению уроков” 2013 год
8. Е.А. Луцева «Методические пособие с поурочными разработками» 2013 год